

AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
"KAPITALBANK"
2024-yil 27 iyun kuni
Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishini e'lon qiladi

Hurmatli aksiyadorlar!

ATB "Kapitalbank" aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi:
Toshkent shahri., Maxtumquli ko'chasi, 1. ATB "Kapitalbank" Yashnobod filiali binosida.
E-mail: info@kapitalbank.uz, veb-sayt: www.kapitalbank.uz.
Ro'yxatga olish 10:30 da boshlanadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishining boshlanish vaqti 11:00.

ATB "Kapitalbank" aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati 2024 yil 21 iyun holatiga ko'ra bankning aksiyadorlar reestriga muvofiq tuziladi.

Kun tartibi:

1. ATB "Kapitalbank" Kuzatuv kengashi raisining ATB "Kapitalbank" Kuzatuv kengashining 2023-yildagi faoliyati yakunlari to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish va ATB "Kapitalbank" Kuzatuv kengashining 2023-yilda qabul qilingan qarorlarini tasdiqlash to'g'risida;
2. Bank Boshqaruvi raisining ATB "Kapitalbank"ning 2023-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida;
3. ATB "Kapitalbank" 2023-yil uchun moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risidagi auditorlik xulosasini tasdiqlash to'g'risida;
4. ATB "Kapitalbank"ning 2023-yil yakunlari Yillik hisoboti, balans hisoboti va foyda va zarar to'g'risidagi hisobotlarini tasdiqlash to'g'risida;
5. 2023-yildagi Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha so'f foyda taqsimotini tasdiqlash to'g'risida;
6. ATB "Kapitalbank" aksiyalarining qo'shimcha aksiyalarini chiqarish to'g'risida.
7. ATB "Kapitalbank" aksiyalarining qo'shimcha yigirma to'rtinchi aksiyalari emissiyasi to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida.
8. Umidsiz aktivlar va boshqa qarzlarni hisobdan chiqarish hamda ko'zda to'tilmagan xarajatlar hisoblarida hisobga olish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida
9. 2024-moliyaviy yil uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash va auditorlik xizmatlari uchun to'lovning maksimal miqdori belgilash to'g'risida
10. Xayriya, beg'araz va homiylik yordami mablag'larining eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risidagi
11. Aloqador shaxslar bilan tuzilgan bitimlarni tasdiqlash to'g'risida.
12. ATB "Kapitalbank" boshqaruv organlari to'g'risidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risida.
13. ATB "Kapitalbank" Nizomini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risida.

Izoh: Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidagi aksiyadorning vakili yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ishonchnomada Vakil to'g'risidagi ma'lumotlar (Ismi yoki nomlanishi, yashash joyi yoki joylashuvi, pasport ma'lumotlari) aks etishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlanishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.